

## ISLOMIY BANKLAR TIZIMI

**Qodirova Laylo Otabek qizi**

Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

E-mail: [layloqodirova717@gmail.com](mailto:layloqodirova717@gmail.com)

**Annotatsiya:** Hozirda moliya tizimida global rivojlanib borayotgan islomiy banklar sistemasi 47 yil mobaynida dunyoviy pul munosabatlarida o‘z o‘rnini topdi va yaxlit tizimga aylangan. Ammo O‘zbekiston ichida islom banklarining mohiyati va asosiy maqsad- vazifalari nimadan iborat ekanligi haqida tushuncha kam tarqalgan. Islom banklari an’anaviy banklar ko‘rsatadigan barcha xizmatlarni islom shariati tamoyillariga asoslangan holda amalga oshiradi.

**Kalit so‘zlar:** islom banklari, ITB, ribo, qarz al-hasan, mushoraka, mudoraba, murobaha, zakot, ijara, risklarni taqsimlash, an’anaviy bank, sudxo‘rlik, foiz stavkasi, pul munosabatlari, isomiy nobank tashkilotlar

## ISLAMIC BANKING SYSTEM

**Abstract:** Nowadays Islamic banking is getting more developed during 47 years in global finance. However, in Uzbekistan residences know less about meaning and major function of Islamic banking. Islamic banking system covers all functions completely as same as conventional banking following Islamic religious law.

**Key words:** Islamic banking, IDB, ribo, qarz al- hasan, mushoraka, mudoraba, murobaha, zakot, lease, distribution of risk, conventional banking, interest rate, financial operations, Islamic unbanking organization

Islom yoki asosiy fuqarolari musulmon bo‘lgan mamlakatlarda bank tizimida kredit olishda ikkilanish yuzaga keladi. Chunki kreditlar Islom shariatida sudxo‘rlik va yoki an’anaviy bank ishi tili bilan aytganda foiz stavkalariga asoslanadi. Darhaqiqat

ko'pgina kredit talabgorlari foiz to'lovlardan cho'chishadi. Hatto bir qancha rivojlanayotgan mamlakatlar ham tashqi qarzlarda aynan foizlar bilan muammolarga duch kelishadi. Misol o'rnida keltirish mumkinki, Nigeriya prezidenti Olusegun Obasanjo shunday deydi: “1985-yillarda Nigeriya davlati 5 mlrd AQSH dollari miqdorida mikro qarz olgan edi va biz 2000-yilga qadar 16 mlrd AQSH dollariga yaqin ushbu qarz yuzasidan pul to'ladik, ammo bizga hali ham 28mlrd AQSH dollar miqdorida qarzdor ekanimizni aytishdi. Bu 28 mlrd AQSH dollar xorijiy kreditorlarning murakkab foiz stavkalari va ularning adolatsizligi tufayli yuzaga keldi. Agar siz mendan dunyodagi eng yomon narsa nima ekanligini so'rasangiz, men aytaman, bu-foiz stavkasidir”. Ammo bugungi kunda bu ikkilanishga aniqlik kiritadigan tushuncha paydo bo'lgan. Bu- Islom banklari.

So'ngi yillarda islom moliya tizimi tushunchasi ko'plab mamlakatlar , shu jumladan O'zbekiston moliyachilarining so'z boyligidan mustahkam o'rin egallagan bo'lsada, bank xizmatlari xaridorlari haqida bunday deyish biroz mushkul. Shu nuqtai nazardan, islom moliya tizimi va uning ishlash prinsplari, islom banklarining an'anaviy banklardan farqi haqida ushbu maqolada so'z boradi.

Islom moliya tarmog'i jahonda jadal rivojlanib birayotgan va intensiv moliyalashtirish mexanizmlarini o'zida aks ettirgnsn sohalardan biri hisoblanadi. Buni Jahon Banki ham Islom moliyasi sohasida faol ishtirokchilardan biri bo'lishiga intilayotgani misolida ko'rishimiz mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, keying yillarda islomiy moliya muassasalari yalpi aktivlari miqdori 2,5 trillion dollarni tashkil etib, yiliga 15-20 foizga o'sib bormoqda. Butun dunyo bo'ylab 40 dan ortiq islomiy banklar faoliyat yuritadigan mamlakatlarni ko'rish mumkin. Islom banklarining asosiy markazlari, asosan, Yaqin Sharq va Fors ko'rfazi mintaqasida: Eron, Quvayt, Malayziya, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirligida joylashgan. Bu banklar nazorat qiladigan aktivlarning umumiy miqdori taxminan 200-500 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. Islom mamlakatlari hisoblangan Eron, Pokiston va Sudanda islom banklari faoliyatiga ruxsat berilgan. Bangladesh, Misr, Indoneziya, Iordaniya va Malayziya kabi boshqa mamlakatlarda an'anaviy banklar bilan bir qatorda islom

banklari xizmat ko‘rsatmoqda. Xo‘sh, islom banklarining mohiyati va asosiy maqsad-vazifalari nimadan iborat? Islom banklarining asosiy ish faoliyati an’anaviy banklar bilan deyarli bir xil. Ushbu banklar ham an’anaviy bank operatsiyalarining deyarli barchasi, ya’ni depozit, kredit, akkredit, hiosb-kitob, to‘lov operatsiyalarini amalga oshiradi. Faqatgina islom banklari kreditlarni foizga bermaydi. Aksincha, ular foizsiz ish olib boradilar. Ular foizli kreditlar o‘rniga mushoraka (sherikchilik), mudoraba (bir tomon sarmoya qiluvchi, ikkinchi tomon ish yurituvchi), murobaha (tijorat operatsiyalarini moliyalashtirish), ijara, zakot va qarz al- hasan (foizsiz qarz) kabi tamoyillar asosida faoliyat olib boradi. Islom banklari an’anaviy banklar singari iqtisodiyotning barcha sohalariga, ya’ni sanoat, agrar sektor, tijorat va xizmat ko‘rsatish sohalariga hech qanday shartlarsiz katta mablag‘larni investitsiya qiladi. Ular mijozlarning talabiga ko‘ra, biron binomi qurib berishi, korxonalar, tashkilot yoki firmani kapital bilan ta’minlashi va ularni ijaraga berishi mumkin. Umumiy qilib quyidagilarni islom banklarining asosiy vazifalari sifatida keltirish mumkin:

- ✚ Aksionerlik kapitaliga vositalarni sarmoyalashtirish
- ✚ Ishlab chiqarish korxonlari va loyihalariga qarzlarni berish
- ✚ A’zo davlatlarga ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi maqsadida boshqa shakllarda moliyaviy yordam berish
- ✚ Aniq maqsadlar uchun tuzadigan fondlarni boshqarish
- ✚ Moliyalashtirish uslublari vositasida moliyaviy resurslar yo‘naltirish va depozitlarni qabul qilish
- ✚ A’zo davlatlarga texnik yordam ko‘rsatish
- ✚ Musulmon davlatlarning rivojlanishi bo‘yicha tashkilot a‘zolarini o‘qitishda xizmatlar ko‘rsatish
- ✚ Bepul kreditlar berish

Islom banklarining eng kata o‘ziga xosligi uning pullarini foizsiz berishidir. 2020-yilning boshida BMT Taraqqiyot dasturi doirasida “O‘zbekitonda islomiy moliya mahsulotlari tahlili” bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqot doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, islom banklari foizli kreditlardan foydalanmasligining

asosiy sababi sifatida avvalambor diniy qarashlar, kreditlar bo‘yicha yuqori kredit darajasi va kreditlarning murakkabligi ko‘rsatilgan. Islom bank ishi va moliya tizimi to‘laligicha shariat tamoyillariga asoslangan va foiz sifatida talqin qilinadigan riboni to‘lashni ham olishni ham taqiqlaydi. Pul qarz berishning eng muqobil variant sifatida yuqorida ta’kidlab ketilgan “Qarz al- hasan” deb atalgan foizsiz kreditlardan foydalanish mumkin. Ammo shu yerda bank ishining e’tiborga molik tarafi bor- shariat pulning vaqt qiymatini tan oladi, chunki islom qoidalariga ko‘ra, to‘lov muddati kechiktirilgan holda sotiladigan tovarning narxi uning hozirgi qiymatidan farq qilishi mumkin.

Amaliy nuqtai nazardan, islom banklari an’anaviy banklardan farq qiladigan va farq qilmaydigan barcha operatsiyalarini quyidagi tamoyillarga asoslangan holda amalga oshiradi:

1. Risklarni taqsimlash: shartnomaning har bir ishtirokchisining o‘rtasida munosib risk yoki daromad taqsimoti aks ettirilishi kerak
2. Barcha moliyaviy operatsiyalar “moddiy yakunlikka” ega bolishi kerak, ya’ni haqiqiy iqtisodiy bitim bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi kerak
3. O‘zgalar mehnatinio‘zlashtirib olishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bitimning hech bir tomoni ekspluatatsiya qilinmasligi kerak
4. Islom shariatiga to‘g‘ri kelmaydigan faoliyatni moliyalashtirishning taqiqlangani: bitimdan Qur’on Karim tomonidan taqiqlangan mahsulotlarni (alkogol, cho‘chqa goshti, qimor o‘yinlari, pornografiya va boshqalar) ishlab chiqarish uchun foydalanib bo‘lmaydi
5. G‘ararning ta’qiqlangani: shariat qonuni shartnoma shartlarining to‘liq shaffofligini talab qiladi. Narxlar, yetkazib berish muammolari va boshqa shartlar bo‘yicha har qanday noaniqlikka yo‘l qo‘yilmaydi
6. Maysir (tahminlarga asoslangan) ning taqiqlanganligi- shariat qonuniga ko‘ra, derivativlar kabi spekulyativ operatsiyaga investitsiya kiritish noqonuniy hisoblanadi



7. Hech qanday qoidabuzarlikka yo‘l qo‘yilmaydi: bank o‘zining barcha operatsiyalarida shariatni buzmaydi

2020-yil BMTning “O‘zbekistonda islomiy moliya tahlili” doirasida amalga oshirilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, agar mamlakatda islom moliya muassasasi tashkil etilsa, so‘rovnomada ishtirok etgan qatnashuvchilarning aksariyati bu muassasa xizmatlaridan foydalanishi mumkinligini ta’kidlagan. Hatto an’anaviy banklar ham O‘zbekistonda islom moliya banklarini tashkil qilish moliya tarmog‘ida halol va shaffof raqobat yuzaga kelishiga, natijada mamlakatda sarmoyalar oqimining o‘shishiga va diversifikatsiyaga olib kelishi haqida o‘z fikrini bildirishgan. Ammo amaliy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, yaqin yillardan beri mamlakatimizda islom moliyasiga dahldor biron muassasa uchratmadik. Hatto mamlakatning aksar aholisiga islom banklari tushunchasi butunlay yangi. Albatta bu O‘zbekistonda bu sohaga e’tibor yo‘qligini anglatmaydi. 2021-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda Islom Taraqqiyot Banki boshqaruvchilar kengashining 46-yillik sessiyasi dasturi doirasida ITBning prezidenti Muhammad bin Sulaymon Al-Jasirni qabul qilgandi. Bu uchrashuvda 2022-2025- yillarga mo‘ljallangan yangi hamkorlik dasturini tez fursatda qabul qilish va amalga oshirish, Bankning to‘laqonli vakolatxonasini ishga tushirish, moliyalashtirish instrumentlari samaradorligini oshirish muhim ekani ta’kidlangan. Shunga ko‘ra 2022-yil 27-aprelda ITBning yangilangan vakolatxonasi Yunusobod tumanida ishga tushdi. ITB prezidenti bilan uchrashuvdan keyin 2021-yil 21-oktabrda Markaziy bankda bo‘lib o‘tgan matbuot anjumanida Markaziy bank raisi Mamarizo Nurmurotov 14 ta bankda “Islom darchasi” yo‘lga qo‘yish ustida ishlar boshlangani va bunda islom tamoyillari asosida kredit berish sakllari amalga oshirilishi haqida gapirgandi. Shunga ko‘ra, hozirda an’anaviy banklardan biri bo‘lgan Xalq bankida “Islom darchasi” yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekistonda islom moliyasi to‘liq ishga tushishidan oldin bu tizimni tanitish maqsadida avvaliga islomiy nobank tashkilotlardan boshlansa, islomiy banklar tashkil etilganda mijozlar tomonidan ikkilanishlar yuzaga kelmaydi. Shunday tashkilotlarga misol sifatida “Iman Pay” ilovasini keltirish mumkin. Ushbu ilova xaridorlarni deposit,

savdo-sotiq kabi xizmatlar bilan ta'minlaydi. Islom moliya tizimining yurtimiz iqtisodiyoti rivojiga qo'sha oladigan hissasini hisobga olgan holda respublikamizdagi sa'y-harakatlar natijasi sifatida kelgusi yillarda islomiy banklar faoliyatini an'anaviy banklar bilan bir qatorda raqobardosh tashkilot sifatida ko'ramiz degan umiddamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. “Islamic banking: Concept and Metodology” Audil Rashid Khaki research scholar DBFS, University of Kashmir
2. “Islom banklari va an'anaviy banklar o'rtasidagi farqlar” Ahrorjon Abdullayev
3. <https://kun.uz/uz/news/2020/12/29>
4. <https://prezident.uz12.2020y> . O'zbekiton Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojatnomasi
5. <https://www.spot.uz/oz/2021/10/22/islamic-banking>